ТЕРМИЗ ДАВЛАТ УНИВЕРСИТЕТИ

PHILOLOGICAL RESEARCH: LANGUAGE, LITERATURE, EDUCATION

FILOLOGIK TADQIQOTLAR: TIL, ADABIYOT, TA'LIM

ФИЛОЛОГИЧЕСКИЕ ИССЛЕДОВАНИЯ: ЯЗЫК, ЛИТЕРАТУРА, ОБРАЗОВАНИЕ

Илмий-инновацион журнал

Jurnal OAK Rayosatining 2022-yil 30-sentabrdagi 325/6-son qarori bilan filologiya fanlari bo'yicha doktorlik dissertatsiyalari asosiy ilmiy natijalarini chop etish tavsiya etilgan ilmiy nashrlar ro'yxatiga kiritilgan

2021-yildan buyon nashr etiladi

2026/ № 1. 1-2

Termiz – 2026

Muassis:
Termiz davlat universiteti

PHILOLOGICAL RESEARCH: LANGUAGE, LITERATURE, EDUCATION

FILOLOGIK TADQIQOTLAR: TIL, ADABIYOT, TA'LIM

ФИЛОЛОГИЧЕСКИЕ ИССЛЕДОВАНИЯ: ЯЗЫК, ЛИТЕРАТУРА, ОБРАЗОВАНИЕ

ILMIY-INNOVATSION JURNAL

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan 2020 yil 19 oktyabrda 1122 raqami bilan ro'yxatga olingan. Matnlarda foydalanilgan misol, ko'chirma va ma'lumotlar aniqligi uchun mualliflar javobgardir. Jurnaldan ko'chirib bosilganda manba qayd etilishi shart.

Bosishga ruxsat etildi: 12.03.2026
Qog'oz bichimi: 70x85
Bosma tabog'i: 5.94
Ofset bosma. Ofset qog'ozi
Adadi: 100
Bahosi kelishilgan narxda
Buyurtma: 155-son

«TerDU bosmaxonasi»da chop etildi
Termiz shahri, Barkamol avlod ko'chasi, 43-uy

Tahririyat manzili:
190111, Termiz shahri,
Barkamol avlod ko'chasi, 43.
Telefon: +998762231649

E-mail:
philologicalresearch@umail.uz
Rasmiy sayt:
https://journaltersu.uz

BOSH MUHARRIR:
Abduqodir TOSHQULOV,
iqtisodiyot fanlari doktori, professor

TAHRIR HAY'ATI:

Bekpo'lat Umurqulov, filologiya fanlari doktori, professor (bosh muharrir o'rinbosari)
Shoxista Maxmaraimova, filologiya fanlari doktori, professor (mas'ul muharrir)
O'ral Xoliyorov, f.f.f.d. (PhD), dotsent (O'zbekiston)
Olmos Ulviy Binnatova, f.f.d., professor (Ozarbayjon)
Karl Rayxl, f.f.d., professor (Germaniya)
Vali Savash yelok, f.f.d., professor (Turkiya)
Dorota Silviya, f.f.f.d. (PhD), dotsent (Polsha)
Zabita Mahammad qizi Teymurlu, filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori, dotsent (Ozarbayjon)
Tarana Imomverdi qizi Xojieva, filologiya fanlari doktori, professor (Ozarbayjon),
Muslihiddin Muhiddinov, f.f.d., professor (O'zbekiston)
Ibodulla Mirzayev, f.f.d., professor (O'zbekiston)
Abdi Mamatov f.f.d., professor (O'zbekiston)
Suyun Karimov f.f.d., professor (O'zbekiston)
Muhammadxon Hakimov, f.f.d., professor (O'zbekiston)
Nafas Shodmonov f.f.d., professor (O'zbekiston)
Dilmurod Quronov, f.f.d., professor (O'zbekiston)
Murodqosim Abdiyev, f.f.d., professor (O'zbekiston)
Baxtiyor Mengliyev, f.f.d., professor (O'zbekiston)
Normat Yo'ldoshev, f.f.d., dotsent (O'zbekiston)
Baxtiyor Xolmuxamedov, f.f.d., dotsent (O'zbekiston)
Bobonazar Murtazayev, f.f.n., dotsent (O'zbekiston)
Asqar Eshmo'minov, f.f.d., professor (O'zbekiston)
Obidjon Shofiyev, f.f.f.d. (PhD), dotsent (O'zbekiston)
Zafar Umurqulov, f.f.d., dotsent (O'zbekiston)
Nurali Amonturdiyev, f.f.f.d. (PhD) (O'zbekiston)
Hakim Ahmedov, f.f.f.d., dotsent (O'zbekiston)
Abdulla Xudoyqulov, f.f.f.d., dotsent (O'zbekiston)
Ahad Shukurov, f.f.f.d., dotsent (O'zbekiston)
Eshnazar Jabborov, f.f.f.d., dotsent (O'zbekiston)
Abdumurod Arslonov, f.f.f.d., dotsent (O'zbekiston)
Sirojiddin Turdimurodov, f.f.f.d., dotsent (O'zbekiston)
Umida Raximova, f.f.f.d. (PhD) (O'zbekiston)
Gulchehra Begmatova, f.f.f.d. (PhD) (O'zbekiston)
Nargis Qurbonazarova, f.f.f.d., dotsent (O'zbekiston)
Muyassar Xolova, f.f.f.d., dotsent (O'zbekiston)
Shoira Omonturdiyeva, f.f.d., dotsent (O'zbekiston)
Sherzod Turdiqulov, f.f.f.d. (PhD) (O'zbekiston)
Alibek Omonturdiyev, f.f.f.d. (PhD) (O'zbekiston)
Humayun Nadim Muhammad, f.f.f.d., dotsent (O'zbekiston)

Texnik muharrir: Bahodir To'raliyev

Учредитель:
Термезский государственный университет

PHILOLOGICAL RESEARCH: LANGUAGE, LITERATURE, EDUCATION

FILOLOGIK TADQIQOTLAR: TIL, ADABIYOT, TA'LIM
ФИЛОЛОГИЧЕСКИЕ ИССЛЕДОВАНИЯ: ЯЗЫК, ЛИТЕРАТУРА, ОБРАЗОВАНИЕ

НАУЧНО-ИННОВАЦИОННЫЙ ЖУРНАЛ

Зарегистрировано Агентством информации и массовых коммуникаций при Администрации Президента Республики Узбекистан от 19 октября 2020 года под номером 1122.

Авторы несут ответственность за точность приведенных в текстах примеров, отрывков и данных. Необходимо указывать источник при копировании из журнала.

Разрешено к печати: 12.03.2026
Размер бумаги; 70x85
Печатный лист: 5.94
Офсетная печать: Офсетная бумага
Тираж: 100. Цена договорная
Заказ: 155

Печатано в «Типографии ТерГУ»
ул. Баркамол авлод 43, г. Термез

Адрес редакции:
190111, г.Термез, ул. Баркамол авлод, 43.
Телефон: +998762231649

E-mail:
philologicalresearch@umail.uz

Официальный сайт:
https://journaltersu.uz

ГЛАВНЫЙ РЕДАКТОР:
Абдукадир ТАШКУЛОВ,
доктор экономических наук, профессор

РЕДАКЦИОННАЯ КОЛЛЕГИЯ:

Бекпулат Умуркулов, доктор филологических наук, профессор (зам. главного редактора)
Шохиста Махмараимова, доктор филологических наук, профессор (ответственный редактор)
Урал Холияров, д.ф.ф.н. (PhD), доцент (Узбекистан)
Олмос Улвий Биннатова, д.ф.н., профессор (Азербайджан)
Карл Райхл, д.ф.н., профессор (Германия)
Вали Саваш Елок, д.ф.н., профессор (Турция)
Дорота Сильвия, PhD, доцент (Польша)
Забита Магомед кызы Теймурлу, доктор философии по филологии, доцент (Азербайджан)
Тарана Имамверди гызы Хаджиева, доктор наук, профессор (Азербайджан)
Муслихиддин Мухиддинов, д.ф.н., профессор (Узбекистан)
Ибодулла Мирзаев, д.ф.н., профессор (Узбекистан)
Абди Маматов, д.ф.н., профессор (Узбекистан)
Суюн Каримов, д.ф.н., профессор (Узбекистан)
Мухаммадхон Хакимов, д.ф.н., профессор (Узбекистан)
Нафас Шодмонов, д.ф.н., профессор (Узбекистан)
Дилмурод Куронов, д.ф.н., профессор (Узбекистан)
Мурадкасим Абдиев, д.ф.н., профессор (Узбекистан)
Бахтиёр Менглиев, д.ф.н., профессор (Узбекистан)
Нормат Юлдашев, д.ф.н., доцент (Узбекистан)
Бахтиёр Холмухамедов, д.ф.н., доцент (Узбекистан)
Бобоназар Муртазаев, к.ф.н., доцент (Узбекистан)
Аскар Эшмуминов, д.ф.н., профессор (Узбекистан)
Обиджон Шофиев, д.ф.ф.н. (PhD), доцент (Узбекистан)
Зафар Умуркулов, д.ф.н., доцент (Узбекистан)
Нурали Амонтурдиев, д.ф.ф.н. (PhD) (Узбекистан)
Хаким Ахмедов, д.ф.ф.н., доцент (Узбекистан)
Абдулла Худайкулов, д.ф.ф.н., доцент (Узбекистан)
Ахад Шукуров, д.ф.ф.н., доцент (Узбекистан)
Эшназар Джаббаров, д.ф.ф.н., доцент (Узбекистан)
Абдумурод Арслонов, д. ф.ф.н., доцент (Узбекистан)
Сирожиддин Турдимуродов, д. ф.ф.н., доцент (Узбекистан)
Умида Рахимова, д.ф.ф.н. (PhD) (Узбекистан)
Гульчехра Бегматова, д.ф.ф.н. (PhD) (Узбекистан)
Наргис Курбаназарова, д. ф.ф.н., доцент (Узбекистан)
Муяссар Холова, д.ф.ф.н., доцент (Узбекистан)
Шаира Амонтурдиева, д.ф.н., доцент (Узбекистан)
Шерзад Турдикулов, д.ф.ф.н. (PhD) (Узбекистан)
Алибек Омонтурдиев, д.ф.ф.н. (PhD) (Узбекистан)
Хумаюн Надим Мухаммад, д.ф.ф.н., доцент (Узбекистан)

Технический редактор: Баходир Туралиев

Institutor:
Termez State University

PHILOLOGICAL RESEARCH: LANGUAGE, LITERATURE, EDUCATION

FILOLOGIK TADQIQOTLAR: TIL, ADABIYOT, TA'LIM

ФИЛОЛОГИЧЕСКИЕ ИССЛЕДОВАНИЯ: ЯЗЫК, ЛИТЕРАТУРА, ОБРАЗОВАНИЕ

SCIENTIFIC-INNOVATIONAL JOURNAL

Registered by the Agency for Information and Mass Communications under the President's Administration of the of the Republic of Uzbekistan on October 19, 2020 under number 1122.

The authors are responsible for the accuracy of the examples, passages and data provided in the texts. The source must be specified when copying from the journal.

Approved for printing: 12.03.2026
Size of the paper: 70x85
Printed sheet: 5.94. Offset printing.
Offset paper. Circulation: 100
Price is negotiable
Order: 155. Printed at the «Printing House of the TerSU»
43, Barkamol avlod str. Termez city.

Address of Editorial Office:
190111, Barkamol avlod str., 43,
Termez city.
Phone: +998762231649

E-mail:
philologicalresearch@umail.uz

Official website:
https://journaltersu.uz

EDITOR IN-CHIEF:
Abdukodir TASHKULOV,
doctor of economic sciences, professor

EDITORIAL BOARD:

Bekpulat Umurkulov, doctor of philological sciences, professor (Uzbekistan) (deputy chief editor)
Shohista Makhmaraimova, doctor of philological sciences, professor (Uzbekistan) (editor-in-chief)
Ural Kholiyorov, Doctor of Philosophy in Philology, Associate Professor (Uzbekistan)
Olmos Ulviy Binnatova, doct.of philol. sciences, professor (Azerbaijan)
Karl Rayxl, doct.of philol. sciences, professor (Germany)
Vali Salvash Elok, doct. of philol. sciences, professor (Turkey)
Dorota Silvia, PhD, associate professor (Poland)
Zabita Magomed kyzy Teymurlu, Doctor of Philosophy in Philology, Associate Professor (Azerbaijan)
Tarana Imamverdi gizi Khadzhieva, Doctor of Sciences, Professor (Azerbaijan)
Muslihiddin Mukhiddinov, doct.of philol. sciences, professor (Uzbekistan)
Ibodulla Mirzaev, doct.of philol. sciences, professor (Uzbekistan)
Abdi Mmatov, doct.of philol. sciences, professor (Uzbekistan)
Suyun Karimov, doct.of philol. sciences, professor (Uzbekistan)
Muhammadkhon Khakimov, doct.of philol. sciences, professor (Uzbekistan)
Nafas Shodmonov, doct.of philol. sciences, professor (Uzbekistan)
Dilmurod Kuronov, doct. of philol. sciences, professor (Uzbekistan)
Muradkasim Abdiyev, doct. of philol. sciences, professor (Uzbekistan)
Bakhtiyor Mengliev, doct. of philol. sciences, professor (Uzbekistan)
Normat Yuldashev, doct. of philol. sciences, associate professor (Uzbekistan)
Bakhtiyor Kholmukhamedov, doct. of philol. sciences, associate professor (Uzbekistan)
Bobonazar Murtazaev, cand.of philol. sciences, associate professor (Uzbekistan)
Askar Eshmuminov, doct. of philol. sciences, professor (Uzbekistan)
Obidjon Shofiev, PhD, associate professor (Uzbekistan)
Zafar Umurkulov, doct. of philol. sciences, associate professor (Uzbekistan)
Nurali Amonturdiev, PhD (Uzbekistan)
Hakim Akhmedov, Doctor of Philosophy in Philology, Associate Professor (Uzbekistan)
Abdulla Khudaykulov, Doctor of Philosophy in Philology, Associate Professor (Uzbekistan)
Ahad Shukurov, Doctor of Philosophy in Philology, Associate Professor (Uzbekistan)
Eshnazar Jabbarov, Doctor of Philosophy in Philology, Associate Professor (Uzbekistan)
Abdumurod Arslonov, Doctor of Philosophy in Philology, Associate Professor (Uzbekistan)
Sirojiddin Turdimurodov, Doctor of Philosophy in Philology, Associate Professor (Uzbekistan)
Umida Rakhimova, Doctor of Philosophy in Philology (Uzbekistan)
Gulchekhra Begmatova, Doctor of Philosophy in Philology (Uzbekistan)
Nargis Kurbanazarova, Doctor of Philosophy in Philology, Associate Professor (Uzbekistan)
Muyassar Kholova, Doctor of Philosophy in Philology, Associate Professor (Uzbekistan)
Shoira Omonturdiyeva, doct. of philol. sciences, associate professor (Uzbekistan)
Sherzod Turdikulov, Doctor of Philosophy in Philology, Associate Professor (Uzbekistan)
Alibek Omonturdiev, Doctor of Philosophy in Philology (Uzbekistan)
Humayun Nadim Muhammad, Doctor of Philosophy in Philology, Associate Professor (Uzbekistan)

Technical editor: Bakhodir Turaliyev

МУНДАРИЖА

TILSHUNOSLIK

PARDAYEV AZAMAT BAXRONOVICH
So‘zning lingvistik tabiati xususida 7

HAMIDOVA MUHAYYOXON OBIDOVNA
Shukur Xolmirzayev nasrida milliy mentalitetning badiiy talqini 11

ABDURAXMONOV XUDOYNAZAR ABDIRAYIMOVICH
Mavhum otlarning kognitiv-semantik va diskursiv xususiyatlari:
zamonaviy tilshunoslik yondashuvlari asosida tahlil 16

ASADOV TO‘LQIN HAMROYEVICH
Predmet-belgi ma’noli ayrim morfologik oraliq so‘zlarning qiyosiy-tarixiy tavsifi 22

G‘AYBULLAYEVA DILDORA FAYZULLA QIZI
O‘zbek tilidagi insonning fizik xususiyatlarini
ifodalovchi frazeonimlarning semantik-stilistik tahlili 26

NASHIROVA SHAXNOZA BURIYEVNA
Ikki tilli lug‘atlar: nazariy asoslar va tarixiy yondashuv 29

NORKUZIYEVA DILDORA
Til tizimiga kiritilgan zoonim va zoomorfizmlarning
qiyosiy tipologik tadqiqotlardagi tahlili 33

ERGASHEVA DILRABO ALLANAZAROVNA
Epitet – badiiy matnni obrazli ifodalovchi vosita 38

AVEZOVA GULNOZA KAMILOVNA
Komil Avazning nasriy asarlarida dialektizmlarning qo‘llanilishi
(«Sozanda» romani misolida) 41

AMONOVA ZAMIRA
Nemis va o‘zbek tillarida destruksiyani ifodalovchi
fe’llarning metaforik qo‘llanilishi 44

NE’MATOVA O‘G‘ILOY AKRAM QIZI
«Maxzan ul-asror” dostonining badiiy-tasviriy
vositalari va uslubiy xususiyatlari 53

TUROBOVA MATLUBA RAXMATULLAYEVNA
Sun’iy intellekt tizimlarida o‘zbek tili leksikografik bazasini
shakllantirishning innovatsion usullari 56

KO‘CHIYEVA SHABNAM ISOMIDDIN QIZI
Tilshunoslikda disleksiya va disgrafiyaning
neyrolingvistik va psixolingvistik tadqiqi masalalari 60

OZADOVA MA’MURA ERGASHEVNA
Xorazm xalq qo‘shiqlari tilidagi manglay leksemasining lingvokulturologik va
lingvopoetik xususiyatlariga doir 63

МУНДАРИЖА

ALLAQULOVA SADOQAT AXMAT QIZI
O‘zbek tilining umumiy izohli lug‘atlarida etnoleksemalar berilishining qiyosiy tahlili 65

O‘RAZOV ALISHER DONIYOROVICH
O‘zbek tilida leksemaning semantik tabiati 68

JUMAYEVA KUMUSH TURSUNALIYEVNA
O‘zbek tili o‘zlashma qatlam somatik lesemalarida leksik tipologiya 72

MURODQULOVA IRODA SHAROFIDDINOVNA
Semurg‘ obrazining lingvomadaniy talqini (o‘zbek xalq dostonlari misolida) 76

ADABIYOTSHUNOSLIK

АСРОРОВ АКБАР, БОЛТАЕВ МАРДОН
Шоҳона сатрлар соҳиби – Султон Убайдий 80

SAMATOV SHOMAT, XO‘JANOVA OZODA
Buyuk shoir xotirasiga munosib haykal 85

ABDULLAYEV RAMAZON
Composing tatabbu‘ poetry in the time of Mu‘izzī and after him 88

JEPBAROWA SAÝAT KURBANMIRATOWNA,
EGENMURADOV ARZUV ANNAMIRATOVICH
Magtymguly Pyragynyň döredijilik äleminde möwlana Lutfynyň edebi poetik täsiri 93

ABDUXALIQOVA HILOLA G‘ULOM QIZI
XVIII–XIX asrlar o‘zbek dostonlarida tasavvufiy talqinlar 97

PAYG‘AMOVA SHIRIN JAKBARALI QIZI
Analitik folklorizmlarning poetik xususiyatlari 100

JAVLIYEV POYONBEK SHAVKAT O‘G‘LI
Usmon Azim nasrida lirik ohang 103

FERUZA RASULOVNA RASHIDOVA
The depiction of internal monologue as a form of artistic psychologism
in the novels of the Bronte sisters 106

TA’LIM

MASHARIPOVA NARGIZA OTAXONOVNA,
BAXRAMOVA MALIKA MUZAFFAROVNA
Sun’iy intellektli o‘yin yordamida inglizcha so‘z boyligini oshirish
(o‘zbek madaniyati asosida) 109

Filologik tadqiqotlar: til, adabiyot, ta'lim. 2026; 1-2
ISNN: 2181-1741 (Print)
ISNN: 2181-1725

O'ZBEK TILI O'ZLASHMA QATLAM SOMATIK LESEMALARIDA LEKSIK TIPOLOGIYA

Jumayeva Kumush Tursunaliyevna
Turon universiteti 2-kurs magistranti
***E-Mail**:kumushdjumayeva84@gmail.com*
Tel: (91).321-39-23

Tipologiya grekcha *tipos* – tip, tur, shakl, belgi va *logos* – so'z, fan so'zlarining birikishidan hosil bo'lgan bo'lib, obyektlarni mavhum umumlashgan ko'rinishlari yordamida ilmiy tasnif qilish usuli hisoblanadi va u ikkiga bo'linadi: a) lingvistik tipologiya; b) nolingvistik tipologiya. Lingvistik tipologiyada tillar tizimi bir-biri bilan qiyoslanadi, til qonunlari va kategoriyalari umumlashtiriladi, ular turlarga ajratilib tasniflanadi.

Tilshunoslikda tipologiya umuman til tuzilishining muhim belgilarini alohida, ayrim olingan tillar qurilishini o'rganish va taqqoslash asosida aniqlaydi. Shuningdek, tipologiya til birliklarini biron umumiy belgisi asosida tasniflaydi[1].

N.S.Trubetskoy boshlab bergan qiyoslash metodi, avval fonetik sathda qo'llangan bo'lsa, keyin grammatika, va nihoyat, leksika sathlar bo'yicha ham amal qilina boshlandi [2].

Ayniqsa, leksik o'zgarishlardagi tashqi omil rang-barang va ko'p tarmoqlidir. Leksika tillarning bir-biridan farq qilinishining birinchi elementi bo'lib, u tillar yaqinlashishining omillaridan biri, harakatchan, o'zgaruvchan qismi hamdir. Tillardagi senergetik ko'chishlar uzoq vaqt mobaynida keng ma'noda qo'llanilib kelgan, bu hodisa bir tilning boshqa tilga ta'siri natijasida yuz beradi.

Leksik tipologiya tarkibiga quyidagi bo'limlar kiradi: 1) so'zlarning leksik tipologiyasi; 2) so'z yasalishining leksik tipologiyasi; 3) qiyosiy leksikografiya; 4) leksik-statistik tipologiya; 5) o'zlashma leksika tipologiyasi; 6) frazeologizmlarning leksik tipologiyasi; 7) maqol va matallarning leksik tipologiyasi; 8) onamastikaning leksik tipologiyasi; 9) toponimikaning leksik tipologiyasi; 10) terminologiyaning leksik tipologiyasi; 11) diaxron leksik tipologiya va boshqalar.

MAVZUGA OID ADABIYOTLARNING TAHLILI. O'zbek tili leksikasini tarixiy-etimologik qatlam (TEQ) larga ajratib o'rganish uning asl genetik manbalarini aniqlash, o'zbek tilining qardosh va qardosh bo'lmagan tillar orasida tutgan o'rnini belgilash, buning natijasida tilda mavjud bo'lgan somatik leksemalar (SL) ning sinxronik va diaxronik mohiyatini aniqlashga yordam beradi. Bu boradi E.Begmatovning "Hozirgi o'zbek adabiy tilining leksik qatlamlari" monografiyasida o'zbek tili leksikasining lug'aviy qatlamlarini nazariy aspektda chuqur tahlil etilganligi qayd etish joizdir [3].

Shunga binoan o'zbek tilining leksik qatlamida mavjud bo'lgan tana a'zolarini atovchi so'zlar, ya'ni somatik leksemalar tipologiyasi borasida bahs olib borishnin muhimligi shundaki, avvalo, ayni soha tilimizning eng faol leksik birliklari hisoblanadi, keyin, ular umumlisoniy qiymat kasb etgani holda, dunyo tillarining barchasi uchun umumiy hamda keng iste'molli so'zlar majmuasidan iborat sanaladi. Qolaversa, mazkur leksik birliklar yuzaga kelish tadrijiga ko'ra eng qadimiy, balki tilning yuzaga kelishi uchun ilk fikr almashinuvi vositasi bo'lgan bo'lishi mumkin. Shu boisdan ham SL ni tipologik tavsiflash tilshunosligimiz uchun bir qadar masalalarning yechilishi uchun xizmat qilishi aniq.

SL ni tipologik tasniflash M. A.Сабирова, Z.G.Abubakirova, M.I. Gadoyeva, T. Isomiddinova, A. Isayev singari olimlarning talqiniga binoan yondashish shuni ko'rsatadiki, dastlab, mazkur so'zlarni asl geniologik mansubligiga ko'ra o'z va o'zlashgan qatlamlar ajratish hamda ularni ma'lum xususiyatlari jihatdan turkumlarga bo'lib tasnif etish ajratish inson tana a'zolarining lingvistik mohiyatini muayyanlashtirishda muhim ilmiy manbalar sanaladi.

TAHLIL VA NATIJALAR. Tipologiya grekcha tipos – tip, tur, shakl, belgi va logos – so'z, fan so'zlarining birikishidan hosil bo'lgan bo'lib, obyektlarni mavhum umumlashgan ko'rinishlari yordamida ilmiy

[1] Буранов Дж. Сравнительная типология английского и тюркских языков. –М.: Наука, 1983. – С. 263.
[2] Бегматов Э. Ҳозирги ўзбек адабий тилининг лексик қатламлари. – Тошкент: Фан, 1985. – Б. 200.
[3] Абубакирова З.Г. Соматическая лексика в фразеологии башкирского языка (лингвокультурологический аспект): Автореф. дисс. ... канд. филол. наук. – Казан, 2017. – С. 14.

tasnif qilish usuli hisoblanadi va u ikkiga bo'linadi: a) lingvistik tipologiya; b) nolingvistik tipologiya. Lingvistik tipologiyada tillar tizimi bir-biri bilan qiyoslanadi, til qonunlari va kategoriyalari umumlashtiriladi, ular turlarga ajratilib tasniflanadi.

Tilshunoslikda tipologiya umuman til tuzilishining muhim belgilarini alohida, ayrim olingan tillar qurilishini o'rganish va taqqoslash asosida aniqlaydi. Shuningdek, tipologiya til birliklarini biron umumiy belgisi asosida tasniflaydi[1].

N.S.Trubetskoy boshlab bergan qiyoslash metodi, avval fonetik sathda qo'llangan bo'lsa, keyin grammatika, va nihoyat, leksika sathlar bo'yicha ham amal qilina boshlandi.

Ayniqsa, leksik o'zgarishlardagi tashqi omil rang-barang va ko'p tarmoqlidir. Leksika tillarning bir-biridan farq qilinishining birinchi elementi bo'lib, u tillar yaqinlashishining omillaridan biri, harakatchan, o'zgaruvchan qismi hamdir. Tillardagi senergetik ko'chishlar uzoq vaqt mobaynida keng ma'noda qo'llanilib kelgan, bu hodisa bir tilning boshqa tilga ta'siri natijasida yuz beradi.

Leksik tipologiya tarkibiga quyidagi bo'limlar kiradi: 1) so'zlarning leksik tipologiyasi; 2) so'z yasalishining leksik tipologiyasi; 3) qiyosiy leksikografiya; 4) leksik-statistik tipologiya; 5) o'zlashma leksika tipologiyasi; 6) frazeologizmlarning leksik tipologiyasi; 7) maqol va matallarning leksik tipologiyasi; 8) onamastikaning leksik tipologiyasi; 9) toponimikaning leksik tipologiyasi; 10) terminologiyaning leksik tipologiyasi; 11) diaxron leksik tipologiya va boshqalar[2].

O'zbek tili leksikasini tarixiy-etimologik qatlam (TEQ)larga ajratib o'rganish uning asl genetik manbalarini aniqlash, o'zbek tilining qardosh va qardosh bo'lmagan tillar orasida tutgan o'rnini belgilash, buning natijasida tilda mavjud bo'lgan somatik leksemalar (SL)ning sinxronik va diaxronik mohiyatini aniqlashga yordam beradi. Bu boradi E.Begmatovning "Hozirgi o'zbek adabiy tilining leksik qatlamlari" monografiyasida o'zbek tili leksikasining lug'aviy qatlamlarini nazariy aspektda chuqur tahlil etilganligi qayd etish joizdir[3].

Shunga binoan o'zbek tilining leksik qatlamida mavjud bo'lgan tana a'zolarini atovchi so'zlar, ya'ni somatik leksemalar tipologiyasi borasida bahs olib borishnin muhimligi shundaki, avvalo, ayni soha tilimizning eng faol leksik birliklari hisoblanadi, keyin, ular umumlisoniy qiymat kasb etgani holda, dunyo tillarining barchasi uchun umumiy hamda keng iste'molli so'zlar majmuasidan iborat sanaladi. Qolaversa, mazkur leksik birliklar yuzaga kelish tadrijiga ko'ra eng qadimiy, balki tilning yuzaga kelishi uchun ilk fikr almashinuvi vositasi bo'lgan bo'lishi mumkin. Shu boisdan ham SL ni tipologik tavsiflash tilshunosligimiz uchun bir qadar masalalarning yechilishi uchun xizmat qilishi aniq.

SL ni tipologik tasniflash shuni ko'rsatadiki, dastlab, mazkur so'zlarni asl geniologik mansubligiga ko'ra o'z va o'zlashgan qatlamlar ajratish hamda ularni ma'lum xususiyatlari jihatdan turkumlarga bo'lib tasnif etish ajratish inson tana a'zolarining lingvistik mohiyatini muayyanlashtiradi.

Barcha tillarda bo'lganidek, hozirgi o'zbek tili ham necha asrlik tarixiy taraqqiyot natijasida o'zining zamonaviy tarkibini shakllantirib bo'ldi. Ammo hozirgi zamonaviy leksik tarkib faqat o'zbek tilining o'zigagina xos bo'lmasdan yoki umumturkiy so'zlarnigina tashkil etmay, o'zga fors-tojik, arab va boshqa tillardan o'zlashgan so'zlar ham uning bag'rida hamon yashab keladi. Alalxusus, inson tana a'zolariga oid so'zlar tarkibi ham ona tilimizning lug'at zaxirasining ajralmas qismi hisoblanadi. Demak, SL ni ham o'z va o'zlashma qatlam doirsida tadqiq etish ularni umumlisoniy qiymatini belgilash muhimligini zohir etadi.

1) Til leksikasidagi SL ni mana shu jihatdan tarh etganda ular genetik jihatdan ikki manbaga mansubligini ko'rsatadi:

2) ichki tarkib jihatdan tilning o'ziga xos bo'lgan SLlar;

3) boshqa tillardan o'zlashgan SLlar.

Shu boisdan mazkur so'zlarni: 1) o'z qatlam va 2) o'zlashgan qatlamlarga ajratib talqin etish o'rinli bo'ladi.

Bu borada Z. Abubakirova shunday yozadi: "Somatizmlar lug'atning eng qadimiy qatlamlaridan biri bo'lib, boshqird frazeologik birliklari tarkibiga kirish chastotasi bo'yicha birinchi o'rinni egallaydi"[4].

M.I. Gadoyeva ham kishi tana a'zolarining nutqiy faolligi hamda adadiy ustunligini ta'kidlab: "Barcha tillardagi somatik so'zlar umumlashtirilgan holda "somonimik so'zlar", ularni o'rganuvchi tilshunoslik bo'limi "somonimiya" deb yuritiladi. "Somonimiya" deganda, chog'ishtirilayotgan tillardagi somatik so'zlarning eng katta qismi tushuniladi. Ular inson tana qismlarining joylashuvini anglash uchun xizmat qiladi," deb munosabat bildiradi[5].

[1] Буранов Дж. Сравнительная типология английского и тюркских языков. –М.: Наука, 1983. – С. 263.

[2] Буранов Дж. Сравнительная типология английского и тюркских языков. –М.: Наука, 1983. – С. 263.

[3] Бегматов Э. Ҳозирги ўзбек адабий тилининг лексик қатламлари. – Тошкент: Фан, 1985. – Б. 200.

[4] Абубакирова З.Г. Соматическая лексика в фразеологии башкирского языка (лингвокультурологический аспект): Автореф. дисс. ... канд. филол. наук. – Казан, 2017. – С. 14.

[5] Гадоева М. И. Инглиз ва ўзбек тилларида соматизмларнинг семантик-прагматик тадқиқи (фольклорнинг кичик жанрлари мисолида): Филол. фан. Бўйича докт. ... дисс. автореф. – Бухоро, 1922. – 60 б.

A. Isayevning "O'zbek tilida somatik frazeologizmlar" nomli nomzodlik dissertatsiyasi (Toshkent, 1976) kishining tana a'zolari nomi (somatizm) bilan bog'liq iboralarni diaxron va sinxron aspektlarda o'rganishga bag'ishlanganligi bilan diqqatga sazovordir. Ishda somatik frazeologizmlarning eng qadimiy, umumturkiy qatlamini aniqlashga harakat qilingan. Olimning ta'kidlashicha, "Qadimiy turkiy lug'at" ("Drenetyurkskiy slovar") va "Devonu lug'otit turk" asarida 2330 dan ortiq umumturkiy iboralar mavjud, shundan 249 tasida leksik somatizmdir. Bu somatik iboralardan 54 tasi esa hozirgi turkiy tillarda, jumladan o'zbek tili frazeologik sistemasida saqlanib qolgan"[1].

Hozirgi o'zbek tili SLlar tarkibini ham ikkiga ajratash mumkin:

1) o'z qatlam tarkibiga kiruvchi somatik leksemalar;

2) o'zlashma qatlam tarkibiga kiruvchi somatik leksemalar.

1. Yuqorida qayd etilganidek, fors-tojik tilidan o'zlashgan terminlar: tana, peshana, lab, gardan, jigar, kaft va boshqalardan iborat.

O'zbek tiliga chet tillardan, birinchi navbatda, fors-tojik tili bilan eramizning V–VI asrlaridan boshlab aloqada bo'lgan, keyinchalik O'rta Osiyoda arablar hukmronligi davrida (VII-IX asrlarda) arab tili bilan, mo'g'ullar hukmronligi davrida (XIII-XIV asrlarda) mo'g'ul tili bilan aloqa qila boshlagan va ulardan kundalik hayot uchun eng zarur bo'lgan so'zalni o'zlashtirgan.

O'zbek tiliga o'zlashgan fors-tojikcha va arabcha so'zlar o'zbek tilida ma'lum davrlarda faol qo'llanib kelsa-da, keyinchalik ularning o'rnini o'zbekcha so'zlar egallab, o'zlashgan so'zlar iste'moli pasaya boshlagan.

O'zbek tilida qo'llangan inson tana a'zolariga oid o'zlashma qatlam leksemalari ko'p emas, ularning soni quyidagi 6 ta so'zni tashkil etadi: *tana, peshana, lab, gardan, jigar, kaft*. Fors-tojikcha SLlar adadining bunchalik chegaralanganligi kundalik hayotda o'z qatlam SLlarining o'ta faolligida bo'lsa kerak. O'zlashma qatlamga xos bunday so'zlarning turkiy muqobillari ham hozirgi o'zbek tilida mavjud, biroq ular ancha nofaol leksik birliklarga aylanib ulgurgan.

Chunonchi:

TANA. O'TILda bu atama asosining leksik ma'nosi aniqlanmagan, faqat ko'pma'noliligiga diqqat qaratilgan, xolos. "Farhangi zaboni tojikī"da esa "Tana I daraxt va buta poyasi: II o'rgimchak to'rining tori" izohi berilgan. "Badan, jism" ma'nosi esa tan leksemasiga xos deb ta'rif etilgan:

Agar xud bimonū ba geti daroz,
Zi ranҷi tan oyad ba raftan niyoz.
Firdavsiy

Mazmuni:

(*Agar uzoq vaqt bir joyda turib qolinsa, tananing og'rig'i tufayli yurishga ehtiyoj seziladi, Yurish zarurati tananing og'rig'idan kelib chiqadi*).

O'zbek tilida tana polisemantik so'z sifatida: 1) gavda, badan, tan; poya; 2) jonivorlarning jismi, jussasi; 3) daraxtning, o'simlikning tag, poya qismi. 4) 4 tex. turli asbob, mashina va sh. k. ning bo'laklarini tutib turuvchi qismi [6] ma'nolarida qo'llanadi. Keng ma'noda butun gavdani ifodalasa, tor ma'noda gavda, jussaning bir qismi anglashiladi[2].

Mumtoz adabiyotda ham *tana* o'rnida "tan" qo'llanganligini ko'rish mumkin:

Vujudimda anosir band topmay,
Tanim ichra so'ngak payvand topmay. (FSH, 77)

PESHANA. Bu so'zga O'TILda ta'rif berilmagan, unga monosemantik so'z sifatida qaralgan.

"Farhangi zaboni tojikī"da esa ko'pma'noli so'z maqomida yondashilib, ikki ma'nosi bayon etilgan: 1. "Peshona, qoshlar, burun va iyak o'rtasi"; 2. Majoziy ma'noda: "iqbol saodat, baxt" singari atamaning lug'aviy ma'nosi bir qadar to'g'ri belgilangan[3].

O'zbek tilida ham *peshana* so'zi polisemantik qiymat kasb etadi.

1.Inson yuzining tepa qismida – sochi bilan qoshi o'rtasida joylashgan, nisbatan keng va yassi uzv. Misol. *Qo'chqor bo'lar qo'zining peshanasi do'ng bo'lur, Og'a bo'lar yigitning peshanasi keng bo'lur*. Maqol.

2. Ko'chma ma'noda: taqdir: *Peshanangda borini ko'rasan*. (So'zlashuvdan)

DLTda "*alin* – peshona, manglay" tarzida izohlangan. Demak, ko'rinadiki, peshana so'zi ona tilimizning keyingi davrlarida qabul qilingan somonema hisoblanar ekan.

Alisher Navoiy asarlarida *peshana* so'zining sinonimi sifatida *manglay* ko'p karra takror etiladi. Misol:

*Bu mehr ila **manglayin** o'pti,*
Ul boshig'a evrulurg'a qo'pti.
(LM, – B. 57)

LAB. Fors-tojik tiliga xos bu so'z og'iz bo'shlig'ining kirish qismini chegaralab turadigan harakatchan teri burmasi hisoblanadi (Tashqi tomondan teri, ichki tomondan shilliq pardalar bilan qoplangan, uning asosini aylanma joylashgan mimika muskuli tashkil etadi). Turkiycha varianti dudoq, ayrim manbalarda *tutag'*, "Devonu lug'otit turk"da *erin*[4].

[1] Древнетюркский словарь – Л.: Ленинградская отделения "Наука", 1969. – 768 с.

[2] Сабирова М. А. Структурно-семантические особенности соматических слов и идиом в поэзии Камола Худжанди: Автореф. дисс. ... кандидата филол. наук. – Худжанд, 2018. – 26 с.

[3] Фарҳанги забони тоҷики. Ҷ-2. – Москва: нашриёти "Советская энциклопедия", 1969. – 950 с.

[4] Rasanen M. Versuch eines etymologischen Wörterbuchs der Türkspra-chen. – Helsinki, 1969. – 53a.

Alisher Navoiy asarlarida lab leksemasi behad ko'p karra takrorlangan va shoir itellektining yorqin namunasi bo'lib tilga ko'chganligini ko'rish mumkin. Masalan:

*La'li **labi** no'shxand bo'ldi,*
Naxli qadi sarbaland bo'ldi
(LM, – B. 42)
*Tashna **lab** bo'lma, bahr yoninda,*
Qilma shevan, tarab makoninda.
(CC, – Б. 52)

Umuman, Alisher Navoiy ijodida somatik leksemalarning assotsiativ qiymati sohirsuxanlik darajasida yagona bayt bag'riga muxtasar etilganligi shoirning o'z ona tili semantik imkoniyatlarini naqadar teran idrok etganligini zohir qiladi.

*Ne **tan**, ne **tanda bosh**, ne **bosh** aro **ko'z**,*
*Ne **yuz**, ne **yuzda** lab, ne **lab** aro so'z.*
(ФШ.)

YA'ni baytdagi 18 so'zshaklning 9 tasi – deyarli yarmi, somatizmlar bo'lib, ular bir-biri bilan iyerarxik planda tartiblangan hamda o'zaro semantik aloqadorlikda inson vujudini bunyod bo'lish jarayonini "adam nihonxonasidin vujud koshonasig'a kelmak" silsilasini yorqinlashtiradi.

GARDAN. Inson gavdasining boshi bilan tanasini tutashtiruvchi uzvi. O'TILda bo'yin; bo'yinning orqa qismi. Sh.Rahmatullayevning "Bu ot yon tomonga aylan-" ma'nosini anglatadigan tojikcha garonidan fe'lining gardon hozirgi zamon asosiga teng bo'lib (TjRS, 99)... O'TILda bu otning ma'nosi "bo'yinning orqa qismi" deb izohlangani o'rinli emas," [11] deyilsa-da, bu fikr bir qadar tor ma'noga ega. Masalan: "*Keyin oq ko'ylagining **gardaniga** yopishgan joyi ho'l bo'ladi*" misolida aynan "bo'yinning orqa qismi" ma'nosini bildiradi. "*Uni beshik to'yisiyam meni **gardanimda**! Qaysi biriga yetkazay*!" misolida esa ma'no ko'chishi bilan "zimma" semasi yuzaga chiqqan. Demak, bu so'zning dinotativ ma'nosi "bo'yinning orqa qismi" bo'lib, matn ehtiyojiga ko'ra bir necha konnotativ ma'nolarda ham qo'llana oladi. Aslini olganda, bu forscha so'z kam iste'molli, nofaol hisoblanadi. O'zbekcha *bo'yin* oti esa *gardan* bilan mutlaq sinonim sanalmaydi.

JIGAR. Insonning ichki a'zosi. Ovqat hazm qilish uchun o't suyuqligini ishlab chiqaradi. Ikki ma'noda qo'llanadi: 1. Ichki a'zo. 2. Ko'chma ma'noda o'ta yaqin qarindosh. Misollar: 1. *Qarasam, har yelkasiga ikkitadan yigit o'tirsa bemalol ko'taradigan, kesilgan jigardek qalin labida mo'ylov o'sgan Parcha opa devor tagida g'o'ladek oyoqlarini cho'zib bir lagan oshni tizzasiga qo'yib uryapti. (O'tkir Hoshimov. Ikki eshik orasi. – B. 104). 2. Ergas'hali aka yiqilishi bilan o'n chog'li hamyurtlari «voy jigarim»lab o'sha tomonga otishdi.* (O'tkir Hoshimov. Ikki eshik orasi. – B. 203). Sinonimi – *bag'ir*. Qo'llanish chastotasi jigarda ustunlik kasb etadi, bag'irning iste'mol doirasi ancha cheklangan.

2. **Arab tilidan o'zlashgan** SLlarga *kaft* hamda *kift* terminlari kiradi.

Arab tili somiy tillar guruhining janubiy tarmog'iga mansub til. Undan hozirgi o'zbek tiliga juda ko'p so'zlar o'tgan. Eski o'zbek tilida, ya'ni Alisher Navoiy asarlarida qo'llangan umumiy leksemalarning 40 foizi arabcha o'zlashmalarni tashkil etgan. SLlarda milliylik ruhi ustun bo'lganligi sababli bo'lsa kerak, arabcha o'zlashmalarning adadi benihoya past.

KAFT. Qo'lning bilak uchidan barmoqlargacha bo'lgan ichki va oyoq panjasining ostki yaxlit qismi. Qo'lning bilak uchidan barmoqlarning oxirigacha bo'lgan qismi; panja, shapaloq[1].

O'zbek tilida "sahn" ma'nosi bilan leksik ma'nosidan ustunlik kasb etadi. 1. *O'ng qo'limning kaftida avval to'rtta oppoq, chuqur chiziqcha paydo bo'ldi, o'sha zahoti chiziqchalardan tirqirab qon oqa boshladi. (O'tkir Hoshimov "Ikki eshik orasi". – B. 9). 2. Hovli sathi keng bo'lgani bilan kaftdek bo'sh joy yo'q.* (O'tkir Hoshimov "Ikki eshik orasi". – B. 54).

KIFT. Gavdaning bo'yindan qo'lgacha bo'lgan qismi; yelka. 2. Kiyimning yelkada turadigan, yelkani qoplaydigan qismi. Masalan: *Ko'ylagining oldini yoqavayron qilib yechgan doirakash bir tomonga kift tashlab g'ayrat bilan childirmani savalay boshladi.* (O'tkir Hoshimov "Ikki eshik orasi". – B. 177).

O'zbek tilida o'z lug'aviy ma'nosidan tashqari ko'chma ma'noda "asos", "tayanch" ma'nolari bilan ham qo'llanadi. *Kiftini keltirmoq. Akang aylangur, kiftini keltirib yubor hazilliyam kiftini keltirasan, – To'lamat mo'ylov yirik-yirik tishlarini ko'rsatib iljaydi.* S. Anorboyev, Oqsoy.

Xulosa. Xulosa qilib aytganda, o'zbek tili lug'at tarkibining muhim va, ayni paytda, o'ta faol qismi bo'lgan inson tana a'zolarini atovchi leksik birliklarda o'z qatlam so'zlari faol, fors-tojikcha SLlar nofaol, arabcha o'zlashmaga xos SLlar esa kam iste'molli sanaladi. Sababi, somatizmlar paydo bo'lishiga ko'ra qadimiy bo'lib, ularning turkiycha atalishi ayni lisoniy birliklarning boshlang'ich nuqtasida turishi bilan xarakterlanadi.

Resume. Somatisms are mainly words denoting the names of human body parts. Linguists have different views on the term somatism (soma (somatos) - body). In linguistics, typology generally identifies important

[1] Раҳматуллаев Ш. Ўзбек тилининг этимологик луғати. – Тошкент: Университк, 2000. – 600 б.

features of the structure of a language based on the study and comparison of the construction of individual borrowed languages. Typology also classifies language units based on some common feature. Therefore, it is appropriate to interpret the names of human body parts in the Uzbek language by dividing them into: 1) native layer and 2) borrowed layers. Despite the fact that somatic lexemes belonging to the borrowed layer are somewhat less than their counterparts in their own layer, Uzbek words performed lexical-semantic functions that did not fit into their linguistic capabilities. Therefore, the article presents a formal-functional and pragmatic-semantic analysis of somatisms belonging to the borrowed layer - Arabic and Persian-Tajik.

Key words: somatism, linguistic typology, non-linguistic typology, synergetics, lexical layer, partonymy, frequency, Arabic, Persian-Tajik, body, forehead, lip, neck, liver, palm.

Резюме. Соматизмы - это, в основном, слова, обозначающие названия частей человеческого тела. Лингвисты имеют разные взгляды на термин соматизм (soma (somatos) - тело). В лингвистике типология в целом выявляет важные особенности структуры языка на основе изучения и сравнения построения отдельных заимствованных языков. Типология также классифицирует языковые единицы на основе некоторого общего признака. Поэтому уместно интерпретировать названия частей тела человека в узбекском языке, разделив их на: 1) исконный слой и 2) заимствованные слои. Несмотря на то, что соматические лексемы, принадлежащие к заимствованному пласту, несколько меньше, чем их аналоги в собственном пласте, узбекские слова выполняли лексико-семантические функции, которые не соответствовали их лингвистическим возможностям. Поэтому в статье представлен формально-функциональный и прагматико-семантический анализ соматизмов, принадлежащих к заимствованному слою - арабскому и персидско-таджикскому.

Key words: соматизм, лингвистическая типология, нелингвистическая типология, сенергетика, лексический пласт, партонимия, частота, арабский язык, персидско-таджикский, тело, лоб, губы, шея, печень, ладонь.

Filologik tadqiqotlar: til, adabiyot, ta'lim. 2026; 1-2
ISNN: 2181-1741 (Print)
ISNN: 2181-1725

SEMURG‘ OBRAZINING LINGVOMADANIY TALQINI (O‘ZBEK XALQ DOSTONLARI MISOLIDA)

Murodqulova Iroda Sharofiddinovna,
Termiz davlat universiteti 1-bosqich magistranti

Har bir xalqning o‘ziga xos milliy-madaniy o‘zligi, qadriyatlar tizimi va ma’naviy olami uning ramzlarida mujassamlashgan bo‘ladi. Ramzlar shunchaki belgilar emas, balki xalqning dunyoqarashi, olamni idrok etish usuli va mifologik tafakkurini ochib beruvchi semantik kodlardir. Turkologiya sohasida qushlar va ularning simvolikasi alohida o‘rin tutadi. Bu boradagi lingvistik va madaniy birliklar o‘ziga xos leksik-semantik maydonni tashkil etib, qadimgi turkiy xalqlarning kosmogonik tasavvurlarini aks ettiradi. Jahon folklorshunosligida qushlarning aksariyati qanoti bo‘lganligi uchun osmon ilohlari bilan bog‘liq degan tushunchalar bo‘lgan. Qushlarning ruh va olov bilan aloqadorligi Zardushtiylik dinida ham mavjudligi manbalarda qayd etiladi. “Avesto”dagi qushlar, xususan, Hvarna far olov bilan bog‘lab talqin etilganligini kuzatish mumkin[1].

Ta’kidlash joizki, jahon xalqlari mifologiyasida qushlar nafaqat osmon va yer o‘rtasidagi vositachi, balki insoniyatga madaniyat va hayotiy ne’matlarni

[1] Авесто. Тарихий-адабий ёдгорлик. Асқар Маҳкам таржимаси. – Т.: «Шарқ», 2001. – Б. 16.